© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARINING AXLOQIY SIFATLARINI "TARBIYA" DARSLARIDA SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Atoniyazova Guljaxon Abdujalilovna
Boyovut tuman 17 - umumta’lim maktabi Boshlang’ich sinf o’qituvchisi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23156250

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy sifatlarini shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiya yutuqlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni faqatgina his-tuyg‘ularga emas, balki mantiqiy tafakkurga tayangan holda rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta'lim, axloqiy sifatlar, "Tarbiya" fani, mantiqiy fikrlash, kognitiv yondashuv, raqamli didaktika, axloqiy dilemma, pedagogik tajriba-sinov.

KIRISH

Uchinchi Renessans poydevori shakllantirilayotgan hozirgi davrda yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasi milliy xavfsizlik va taraqqiyotning asosiy omillaridan biriga aylandi. Uzluksiz ta'lim tizimining bazaviy bosqichi bo‘lgan boshlang‘ich ta'limda bolaning shaxsi, uning ijtimoiy munosabatlari, borliqqa va o‘zgalarga bo‘lgan munosabati poydevori yaratiladi. Shu ma'noda, umumiy o‘rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanining o‘quv rejasiga kiritilishi davr talabiga javob beradigan, o‘z vaqtida qabul qilingan strategik qaror bo‘ldi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotidagi eng muhim psixologik burilish – bu ularning ijtimoiy rollar tizimiga faol kirib borishidir. Bola bog‘chadan maktabga qadam qo‘yarkan, unda yangi majburiyatlar, burch hissi va axloqiy me'yorlarga ongli ravishda amal qilish talabi paydo bo‘ladi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, an'anaviy o‘qitish metodlarida axloqiy tarbiya ko‘pincha quruq nasihatgo‘ylik, qoidalarni yodlatish xarakteriga ega bo‘lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Axloqiy tarbiya va kognitiv rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi masalasi jahon va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Kognitiv psixologiya asoschisi J.Piaje bolalarda axloqiy rivojlanish bosqichma-bosqich, ularning mantiqiy fikrlash darajasiga mutanosib ravishda o‘sishini isbotlagan. Uning nazariyasiga ko‘ra, kichik maktab yoshida bola "avtoritar axloq"dan (kattalar aytgani uchun to‘g‘ri) "avtonom axloq"qa (harakatning oqibatini mantiqan anglagan holda to‘g‘ri) o‘ta boshlaydi. L.Kolberg ham axloqiy rivojlanishni insonning intellektual-mantiqiy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘laydi.

O‘zbek pedagogikasida yosh avlodni axloqiy tarbiyalash masalalari O.Musurmonova, M.Quronov, J.Hasanboyev kabi olimlar tomonidan milliy qadriyatlarimiz asosida chuqur o‘rganilgan. Boshlang‘ich ta'lim didaktikasi va kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha R.Safarova, B.Xodjayev kabi tadqiqotchilar muhim ilmiy xulosalarni ilgari surishgan. Biroq, 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi doirasida aynan "Tarbiya" fani misolida axloqiy va mantiqiy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, buning uchun maxsus elektron platformalar yaratish masalalari yaxlit pedagogik tizim sifatida bugungi kungacha yetarlicha ochib berilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida empirik va nazariy metodlar majmuasidan foydalanildi. Pedagogik kuzatish, anketa-so‘rov, suhbat, shuningdek o‘quvchilarning axloqiy-mantiqiy fikrlash darajasini baholashga qaratilgan maxsus diagnostik testlar qo‘llanildi.

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Tadqiqotning amaliy ahamiyatini oshirish, ishlab chiqilgan metodikaning turli ijtimoiy-madaniy muhitlarda qanchalik samarali ishlashini tekshirish maqsadida tajriba-sinov ishlari geografik jihatdan keng qamrovda tashkil etildi. Xususan, pedagogik eksperimentlar Guliston shahridagi maktablar bilan bir qatorda, Qo‘qon, Namangan va Qarshi shaharlaridagi ta'lim muassasalari bazasida ham amalga oshirilishi rejalashtirildi. Bu hududiy xilma-xillik tadqiqot natijalarining obyektivligini ta'minlashga va olingan xulosalar hamda dalolatnomalarning respublika miqyosida tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

1. Axloqiy sifatlar va mantiqiy tafakkur uzviyligi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy sifatlarni (rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, mas'uliyat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik) tarbiyalash jarayoni psixologik jihatdan juda nozikdir. Agar o‘qituvchi faqat taqiqlar ("mumkin emas", "yomon bo‘ladi") orqali ta'sir o‘tkazishga urinsa, bolada ongli axloqiy e'tiqod emas, balki qo‘rquv va itoatkorlik shakllanadi. "Tarbiya" fani standartlari talab qiladigan komil shaxsni shakllantirish uchun axloqiy tarbiya albatta mantiqiy dalillarga asoslanishi kerak.

Mantiqiy fikrlash – bu sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash, obyektlarni taqqoslash, tahlil qilish va to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyatidir. "Tarbiya" darslarida bu qobiliyat o‘quvchiga o‘z xatti-harakatlarining oqibatini oldindan ko‘ra bilish imkonini beradi. Masalan, o‘quvchi o‘rtog‘ining ruchkasini ruxsatsiz olish yomon ekanligini shunchaki qoida bo‘lgani uchun emas, balki "Agar hamma bir-birining narsasini ruxsatsiz olsa, tartibsizlik kelib chiqadi, mulk daxlsizligi buziladi va odamlar o‘rtasida ishonch yo‘qoladi" degan mantiqiy xulosaga o‘zi kelishi kerak. O‘qituvchining vazifasi – tayyor xulosani berish emas, balki bolani shu xulosaga olib boruvchi savollar zanjirini (Sokrat suhbati) tuzishdir.

2. "Tarbiya" darslarida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar

O‘quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish yuqori samaradorlik ko‘rsatadi.

Axloqiy-mantiqiy modellashtirish (Keys-stadi). Boshlang‘ich sinf darsliklaridagi ertak yoki hikoyalarni shunchaki o‘qib berish o‘rniga, ularni muammoli vaziyatga (keysga) aylantirish maqsadga muvofiq. Darsda o‘quvchilarga hayotiy, ularning yosh xususiyatlariga mos dilemmalar beriladi. Masalan: "Sardor tasodifan sinf derazasini sindirib qo‘ydi. Buni faqat eng yaqin o‘rtog‘i Anvar ko‘rdi. O‘qituvchi kim sindirganini so‘raganda, Anvar nima qilishi kerak? O‘rtog‘ini sotmaslik uchun yolg‘on gapirishimi yoki haqiqatni aytib do‘stini xafa qilishimi?" Bunday ochiq savollar bolalarni chuqur o‘ylashga, o‘z fikrini mantiqan asoslashga va axloqiy qadriyatlarni tarozi pallalariga qo‘yib tahlil qilishga o‘rgatadi.

Loyihaviy va jamoaviy ta'lim. Boshlang‘ich ta'limda bolaning ijtimoiy moslashuvi guruhdagi faoliyat orqali kechadi. "Tarbiya" darslarida amaliy ahamiyatga ega kichik loyihalar tashkil etish (masalan, maktab hovlisiga qushlar uchun in yasash, sinf burchagini tozalash, qariyalar holidan xabar olish ssenariylarini tuzish) o‘quvchilarda mehnatsevarlik, jamoaviylik, o‘zgalarga yordam berish kabi sifatlarni bevosita harakatlar orqali shakllantiradi.

TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA NATIJALAR TAHLILI

O‘quvchilarda axloqiy sifatlarning shakllanganlik darajasini o‘lchash pedagogikadagi eng murakkab jarayonlardan biridir, chunki axloq moddiy narsa emas. Shuning uchun biz baholashning uch bosqichli majmuaviy mezonini ishlab chiqdik:

Kognitiv-mantiqiy mezon: O‘quvchining axloqiy tushunchalar mohiyatini qanchalik chuquranglashi. (Masalan, "Nima uchun tabiatni asrash kerak?" degan savolga shunchaki "yaxshi ish bo‘lgani uchun" emas, ekologik zanjirni tushuntirib bera olishi).

© 2026 International Conference on Multidisciplinary Sciences and Innovations . All Rights Reserved.

Hissiy-emotsional mezon: Boshqalarning holatiga empatiya qila olishi, nojo‘ya xatti-harakati uchun vijdon azobini his qilishi.

Xulq-atvor (amaliy) mezoni: O‘zlashtirilgan bilimlarning kundalik hayotda, dars jarayonida, tanaffusda va oilada real namoyon bo‘lishi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda tanlangan maktablarda nazorat va tajriba sinflari ajratildi. Tajriba sinflarida "Tarbiya" fani doirasida biz taklif etgan axloqiy dilemmalar, mantiqiy masalalar va yaratilgan veb-sayt resurslaridan muntazam foydalanildi. Dastlabki monitoring (tajribadan oldingi) natijalariga ko‘ra, ikkala sinfda ham o‘quvchilarning axloqiy qoidalarni nazariy bilish ko‘rsatkichi deyarli bir xil, ammo uni muammoli vaziyatlarda qo‘llash (xulq-atvor mezoni) darajasi past edi.

Eksperiment yakunida o‘tkazilgan qayta diagnostika shuni ko‘rsatdiki, tajriba sinfi o‘quvchilarida axloqiy me'yorlarni mantiqan asoslash ko‘rsatkichi nazorat sinfiga nisbatan sezilarli darajada (o‘rtacha 24-28% ga) oshdi. O‘quvchilar darsdagi ziddiyatli vaziyatlarda agressiyaga berilmay, masalani muzokara va mantiqiy tushuntirish yo‘li bilan hal qilish ko‘nikmasini namoyish etishdi. Hududiy maktablarda o‘tkazilgan ochiq darslar va joriy etish dalolatnomalari ushbu metodikaning yuqori amaliy ahamiyatini tasdiqladi.

XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR

Boshlang‘ich ta'lim bosqichida o‘quvchilarning axloqiy sifatlarini shakllantirish mexanik jarayon emas, balki bolaning kognitiv va emotsional sferalarini bir vaqtda qamrab oluvchi murakkab tizimdir. Tadqiqotimiz natijalariga tayanib quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga keldik:

Birinchidan, "Tarbiya" darslari quruq axborot berishdan iborat bo‘lib qolmasligi, har bir axloqiy qoida o‘quvchining mantiqiy tafakkur chig‘irig‘idan o‘tkazilishi shart.

Ikkinchidan, muammoli vaziyatlar (keys-stadi) va loyihaviy ta'lim axloqiy tarbiyaning eng sarmarali vositasidir.

Uchinchidan, zamonaviy axborot makonida raqamli didaktika va ixtisoslashtirilgan elektron veb-platformalar pedagogik maqsadlarga erishishni tezlashtiradi va ta'lim jarayonini o‘quvchilar uchun jozibali qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – T.: 2020 yil 23 sentabr.
2. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fani konsepsiyasi. – T.: Xalq ta'limi vazirligi, 2020.
3. Musurmonova O. Umumiy o‘rta ta'lim maktablarida o‘quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari. – T.: "Fan", 2015.
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika. – T.: "Sano-standart", 2017.
5. 5Safarova R. va boshq. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik mexanizmlari. – T.: 2019.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.